

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2025

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY





NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTNOMASI

Bosh muharrir

Kirgizbayev Abdugaffor
Karimjonovich
tarix fanlari doktori, professor

Mas'ul muharrir

Nazarov Abdug'afvor
Abdujabborovich, geografiya
fanlari doktori, professor

Mas'ul muharrir o'rinbosari

Imomov Otabek
Normirzayevich
biologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

Texnik muharrir

Xoshimov Sardorbek
Nozimjon o'g'li

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ"

2019-yildan boshlab O'zbekiston
Respublikasi Oliy attestatsiya
komissiyasi Rayosati qarori
bilan quyidagi fan sohalari
bo'yicha OAKning
dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya
etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

01.00.00-Fizika-matematika
fanlari (14)

02.00.00-Kimyo fanlari (18)

03.00.00-Biologiya fanlari (17)

09.00.00-Falsafa fanlari (24)

10.00.00-Filologiya fanlari (26)

13.00.00-Pedagogika
fanlari (30)

Tahrir hay'ati a'zolari

Fizika-matematika fanlari

Xatamov Nosirjon Muydinovich, fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Abdulazizov Baxromjon Toshmirza o'g'li, fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Sattarov Iskandar Abu-alievich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Dexqonov Farrux Nuriddin o'g'li, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Boytilayev Dilmurod Axmataliyevich, fizika-matematika fanlari nomzodi, katta ilmiy
xodim
Baymatov Paziljon Jamoldinovich, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Davlatov Abror Borijon o'g'li, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori dotsent
Inoyatov Shukurillo Turg'unboyevich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent
Jalolov Ravshan Maxmudjonovich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent
Xolboyev Azamat G'anisherjon o'g'li, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Maxammadaliyev Muxtor Tursunmuxammad o'g'li, fizika-matematika fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Kimyo fanlari

Abdullayev Shavkat Vaxidovich, kimyo fanlari doktori, professor
Sultonov Boxodir Elbekovich, kimyo fanlari doktori, professor
Karimov Abdurashid Musaxonovich, kimyo fanlari doktori, professor
Xolmatov Dilshod Sottorjonovich, texnika fanlari doktori, dotsent
Sattarov Tulqinjon Abdusattor o'g'li, texnika fanlari nomzodi, dotsent
Muradov Murod Toxirjonovich, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori
Rasulov A'zamjon Avazjonovich, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Biologiya fanlari

Tojibayev Komiljon Sharobiddinovich, biologiya fanlari doktori, professor, akademik
Dexqonov Davron Burxonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent
Batoshov Avazbek Risqulovich, biologiya fanlari doktori, professor
Turginov Orzimat Turdimatovich, biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Komilov Doniyor Jo'rayevich, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Egamberdiyev Mehmonjon Xudoyberdiyevich, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent
Xoshimov Xushbaxt Rustamjon o'g'li, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Texnika fanlari

Ataxanov Shuhrat Nuriddinovich, texnika fanlari doktori, professor
Abdullayev Olim Gulamjanovich, texnika fanlari doktori, dotsent
Dadaxanov Musoxon Xoshimxonovich, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Jo'rayev Sherali Umarjonovich, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Qishloq xo'jaligi fanlari

Sulaymonov Inomjon Jamoldinovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent
Turg'unov Muzaffar Mirzaraxmatovich, qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori

Tarix fanlari

Rasulov Abdullajon Nuritdinovich, tarix fanlari doktori, professor
Dexkanov Narimon Burxonjonovich, siyosiy fanlari doktori, professor
Haydaraliyev Shuhrat Abdulazizovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Madraximov Zoxid Sharofovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Xalmuratov Baxtiyor Rejaviyevich, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Erqo'ziyev Anvarjon Ashurovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
To'xtabayev A'zamjon Sharipxo'jayevich, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

“NamDU ilmiy axborotnomasi –
Научный вестник НамГУ”
jurnali O‘zbekiston Matbuot va
axborot agentligining
17.05.2016-yildagi
08-0075 -raqamli guvohnomasi
hamda O‘zbekiston
Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
(AOKA) tomonidan 2020-yil
29-avgust kuni
1106-sonli guvohnomaga binoan
chop etiladi. “NamDU Ilmiy
Axborotnomasi” elektron nashr
sifatida xalqaro standart turkum
raqami
(ISSN-2181-1458) ga ega.

Ilmiy axborotnomaning
2025-8-soni NamDU
Muvofiqlashtiruvchi
Kengashining 2025-yil
30-avgustdagi 9-sonli
yig‘ilishida muhokama qilinib,
ilmiy to‘plam sifatida chop
etishga tavsiya etilgan
(Bayonnoma № 9).
Maqolalarning ilmiy saviyasi va
keltirilgan ma‘lumotlar uchun
mualliflar javobgar hisoblanadi.
Jurnal har oyda o‘zbek, rus va
ingliz tillarida elektron shaklda
chop etiladi.

**Maqolalar quyidagi rasmiy
web sahifa orqali qabul
qilinadi:**
journal.namdu.uz

Tahririyat manzili:
Namangan shahar, Boburshox
ko‘chasi, 161-uy
e-mail: science@namdu.uz

Iqtisodiyot fanlari

Mahmudov Bahriddin Jo‘rayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Baymirzayev Dilmurod Nematovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Yoqubjonova Xulkaroy Yoqubovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Falsafa fanlari

Talapov Baxriddin Alijanovich, falsafa fanlari doktori, professor
Jo‘rayev Ro‘zimat To‘xtasinovich, siyosiy fanlari doktori, professor
Gaffarova Gulchehra Gulamjanovna, falsafa fanlari doktori, professor
Zamilova Rimma Ramiliyevna, pedagogika fanlari doktori, professor
G‘apparov Elyorjon Otabekovich, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Sodirjonov Muxriddin Maxamadaminovich, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent
Muydinova Moxira Mukumjanovna, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Filologiya fanlari

Uluqov Nosirjon Muxammadaliyevich, filologiya fanlari doktori, professor
Jafarov Botir Sattarovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sadikov Zoxid Yaqubjanovich, filologiya fanlari doktori, professor
Dosbayeva Nargiza Turg‘unpo‘latovna, filologiya fanlari doktori, professor
Tojiboyev Ilxomjon Usmonovich, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Karimova Farida Isakovna, filologiya fanlari doktori, dotsent
Siddiqov Qosimjon Abilovich, filologiya fanlari nomzodi, professor
Darvishov Ibroxim O‘rmanovich, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Yuldashev Otabek Toshpulat o‘g‘li, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Geografiya fanlari

Jumaxanov Shavkatjon Zairjanovich, geografiya fanlari doktori, dotsent
Mirzaaxmedov Xamidullo Saydamatovich, geografiya fanlari nomzodi, dotsent
Soliyev Iqboljon Raxmonberdiyevich, geologiya-minerologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori, PhD

Pedagogika fanlari

Asqarova O‘g‘iloy Mamashakirovna, pedagogika fanlari doktori, professor
Xujamberdiyeva Shaxnoza Kupaysinovana, pedagogika fanlari doktori, professor
Ergashev Bobir Baxodirovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Muminova Dilafruz Akbaraliyevna, pedagogika fanlari doktori, dotsent
Ismoilov Turobjon Umirzaqovich, pedagogika fanlari nomzodi, professor
Hamidova Muxayyoxon Obidovna, filologiya fanlari nomzodi, professor
Shodmanov Qodirjon Odilxanovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Toshibekova Munajat Xoshimovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Inamov Dilmirza Dedamirzayevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Madaminov Baxodir Sharifjonovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Urinov Bahrom Jamoliddinovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Sarimsakova Dilafruz Muhammadjonovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent
Axmedov Bexzod Madaminjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Rashidova Nodira Habibullayevna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Tibbiyot fanlari

Abdullayev G‘ofurjon Rahimjanovich, biologiya fanlari doktori, professor
Nurmatov Yodgormirza Xatammirzayevich, tibbiyot fanlari doktori
Abdullayev Ulug‘bek Ubaydullayevich, tibbiyot fanlari nomzodi
Mirzaolimov Mirzohid Mirzavaliyevich, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-8]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Qahharova Sabohat Abdug'afurovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: sabohatqahharova922@gmail.com

"YUR-" ASOSLI FRAZEMALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA TEZAVURUSI

Annotasiya. Mazkur maqolada "yur-" asosli frazemalarning semantik xususiyatlari va tezavrusi xususida fikr yuritiladi. Unda yur- asosli leksemalar barqaror birikmalar tarkibida kelib, ko'chma ma'nodagi sememani yuzaga keltirishi, yurmoq leksemasi maqollarda frazemalar tarkibida ham qo'llanilib, turli semalarni ifodalashda yadro vazifasini o'tashi haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: "yur-" asosli frazemalar, semantika, tezaurus, fe'l frazema, bog'lashuv, ekvivalent birliklar

Khakhkharova Sabokhat Abdugafurovna

Tashkent State University of Uzbek language and literature named after Alisher Navoi doctor of philosophy in
philology (PhD)

SEMANTIC FEATURES AND THESAURUS OF PHRASAL VERBS BASED ON "YUR-"

Annotation. This article discusses the semantic features and thesaurus of phraseological units based on "yur-." It emphasizes that lexemes with the base "yur-" appear within stable combinations, generating figurative meanings, and that the verb yurmoq is used in proverbs as part of phraseological units, serving as a nucleus in expressing various senses.

Keywords: "yur-" based phraseological units, semantics, thesaurus, verb phraseological unit, connection, equivalent units.

Каххарова Сабохат Абдугафуровна

Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои,
доктор философии по филологическим наукам (PhD)

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И ТЕЗАУРУС ФРАЗОВЫХ ГЛАГОЛОВ НА ОСНОВЕ «ЮР-»

Аннотация. В данной статье рассматриваются семантические особенности и тезаурус фразеологизмов на основе «yur-». Отмечается, что лексемы с основой «yur-» встречаются в составе устойчивых словосочетаний, создавая переносное значение, а глагол yurmoq используется в пословицах в составе фразеологизмов, выполняя ядерную функцию при выражении различных сем.

Ключевые слова: фразеологизмы на основе «yur-», семантика, тезаурус, глагольный фразеологизм, сочетаемость, эквивалентные единицы.

Kirish.

Zamonaviy leksikografiya rivoji uchun, qolaversa, istalgan tilni o'zlashtirishda ham so'z boyligi sanalgan lug'aviy birliklarni o'rganish juda muhim, chunki u har qanday tilni o'rganishning asosi sanaladi. Bugungi kunda barchaga sir emaski, elektron shakldagi lug'atlar bosma nashrdagi izohli lug'atlardan bir qator afzallik jihatlari: qulayligi, kamxarjligi, leksik birliklarning paradigmatic, sintagmatic, iyerarxik munosabatlari asosida yuzaga kelgan turli xil ma'nolarni jamlagan holda bir joyda berish imkoniyatining mavjudligi bilan tubdan farq qiladi. Shu sababdan hozirgi vaqtda lingvistik tadqiqotlarning aksariyati bu kabi zamonaviy lug'atlarni yaratishga, buning uchun, avvalo, lug'aviy birliklarning semantikasi

bilan bir qatorda frazemalar semantikasini ishlab chiqishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

O'zbek tili frazeologiyasi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, frazemalar tizimining ilmiy shakllanishi va rivojlanishida professor Sh.Rahmatullayevning xizmatlari beqiyos [1]. Olim o'zbek frazeologiyasi bo'yicha o'tgan asrning o'rtalaridan ish boshlagan. Bu mavzuda nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini yozgan, bir necha o'nlab kitoblar, yuzlab ilmiy maqolalar e'lon qilgan. XX asrning oxirlariga kelib, bu borada B.Yo'ldoshev va aka-uka Abdumurod va Abdug'afur Mamatovlarning xizmatlari alohida tahsinga loyiqdir. B.Yo'ldoshev frazem birliklarning konnotativ

ma'nolari, tasviriy vosita sifatidagi xususiyatlarini keng monografik rejada yoritgan bo'lsa, professor Abdumurod Mamatov frazeologik me'yor muammosini hal qilishga harakat qildi. Professor Abdug'afur Mamatovning tadqiqotlarida esa frazemalarning shakllanish muammolari kun tartibiga ko'tarildi, uning paydo bo'lish omillari aniqlandi [3,4].

Fe'l frazemalari til leksik tizimining eng murakkab va markaziy birligidir. Til tizimining birligi sifatida yo'nalma harakat semali frazemalarni har tomonlama o'rganish hozirgi zamon tilshunosligida leksikografik va semantik masalalarni hal qilishda ahamiyatlidir. Fe'l frazemasi semantikasini aniqlashda ularning sintaktik qurilishi, ma'noviy xususiyatlari, unga bog'lanuvchi birliklarga e'tibor qaratish lozim. Fe'l semantikasi, birinchi navbatda, fe'l sintaktik xatti-harakatlarining turli shakllarini aniq chegaralaydi. Ushbu shakllarning har biri bir yoki bir nechta almashinish, ya'ni ekvivalent birliklar bilan tavsiflanadi. So'ngra fe'l frazemalari ushbu o'zgarishlarga ko'ra tahlil qilinadi: har bir fe'l frazemasi o'z o'rnini bosadigan ekvivalent birliklar bilan almashinadi. Sh.Rahmatullayev mazkur holatga frazema tarkibi va tuzilishi, boshqa leksik birliklar bilan bog'lashuvi hamda uning turlarini belgilash nuqtayi nazaridan yondashgan [5].

Ma'lumki, til birligiga xos ochiq o'rinni egallaydigan birlikka partnyor deyiladi [6]. Partnyor bu o'zbek tilida asosan shaxsga nisbatan ishlatiladigan "hamkor, sherik"

leksemalari o'rnida qo'llanuvchi so'z sanaladi. Mazkur so'zni tilshunos Sh.Rahmatullayev "bog'lashuvchilar" [5] deb nomlaydi va "bog'lashuv" aslida barcha turkum leksemalariga xosligini, ammo fe'llarda bu jarayon nihoyatda kuchli ekanligini alohida ta'kidlaydi. Demak, fe'l turkumiga oid leksik birliklarning partnyorlari sifatida unga mazmun va grammatik jihatdan bog'lanuvchi birliklar – muayyan so'zga tobelanib keluvchi, bo'sh o'rinni to'ldiruvchi aktantlarni tushunamiz. Partnyorlar miqdoriga ko'ra leksemalarning avalentli (bog'lashuvsiz), monovalentli (bir bog'lashuvli), divalentli (ikki bog'lashuvli), uch valentli (uch bog'lashuvli) guruhlar mavjud [9].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani yozishda frazemalarni semantik tahlil qilish, uning muqobil valentligini aniqlash, "yur-" asosli frazemalarning tarkibiy qismlarini tartiblash, modellash kabi metodlar asosida yur-" asosli frazemalarning semantik xususiyatlari tahlilga tortildi va tezaurusi modeli yaratildi.

Tahlil va natijalar.

Fe'l-leksemalarda bog'lashuv ikki xil holatda namoyon bo'ladi [5]:

1. Fe'l-leksema yoki fe'l-frazema boshqa bir leksik birlikni o'ziga bog'laydi, bog'lov amalga oshadi. Masalan: *Kecha xorijliklar yurtimizga tashrif buyurishdi*. Bu gapda *tashrif buyurishdi* bog'latuvchi, qolgan birliklar bog'lanuvchilar sanaladi.

3.1-chizma



2. Fe'l-leksema boshqa bir leksik birlikka bog'lanadi, bog'lov amalga oshadi. M: *Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'yra* maqolida *yurgan inson* bog'lashuvida *yurgan* fe'l-leksema *inson* lug'aviy birligiga bog'langan. Shu sababdan mazkur misolda *yurgan* fe'li bog'lanuvchi, *inson* bog'latuvchi hisoblanadi. Bog'lanuvchining tushib qolishi natijasida fe'lning sifatdosh shakli otlashgan.

Barqaror birikmalar ikki va undan ortiq so'zning birikib, yaxlit ma'no ifodalashiga xizmat qiladigan til birliklaridir. Barqaror birikmalar ma'lum vaqt davomida shakllanadi, lug'aviy ma'noning yuzaga kelishi muayyan tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda amalga oshadi. Shu bois barqaror birikmalar tilning madaniy belgilarini to'plash, aks ettirish, keyingi davrga yetkazish xususiyatiga ega. Ma'lum davrda qo'llangan, keyinchalik iste'moldan chiqqan leksik birliklar ham barqaror

birikmalar tarkibida saqlanib qoladi. Barqaror birikmalar ma'no kengayishi, ma'no torayishi hodisasini ham o'zida aks ettiradi.

Barqaror birikmalar sifatida maqollar, hikmatli so'zlar, frazemalar qayd etilgan.

Barqaror birikmalarda, jumladan maqollarda *yur-fe'lining* erkin birikmalarda kuzatilmagan ma'nolari uchraydi:

1) *Yomonga o'lim yo'q, Yaxshiga – yurim* maqolidagi *yurim* so'zi *yur*-asosidan shakllangan bo'lib, "hayot" ma'nosini ifodalagan. *Och yur, tinch yur* maqolida ham *yur*- "hayot, umr kechirish, yashash" ma'nolarini anglatadi. *Nomussiz yurmoqdan nomusli o'lmoq* yaxshi maqolida ham "yashash, umr kechirish" ma'nolari aks etgan;

2) *Achchig'ing oldin yursa, Aqling keynidan oshib kelsin* maqolida *yurmoq* harakat leksemasi jahl qilish jarayonining

sodir bo'lishini ifodalagan. *Achchiq* so'zlashuv uslubi va shevalarda "jahll" ma'nosida qo'llanadi. *Achchiq* – ot. Qahr, jahll; zarda. *Achchig'i burnining ustida* (yoki uchida) – bekorga, sal narsaga jahll chiqaveradigan inson haqida; *achchig'i kelmoq* (yoki chiqmoq, qistamoq) – jahll qo'zg'amoq; *achchiq ustida* – jahll qo'zg'agan paytda; *achchiq qilmoq* – jahll qilmoq, zarda qilmoq. *Achchiq* asosidan yasalgan fe'llar ham jahll chiqish jarayonini ifodalaydi: *achchiqlanmoq* "jahll chiqmoq, g'azablanmoq"; *achchiqlashmoq* "o'zaro kelishmaslik sababli xafalashmoq" [8];

3) *Dono bilan yursang, dono bo'lasan, Ahmoq bilan yursang, rasvo bo'lasan; Yaxshi bilan yurding – yetding murodga, yomon bilan yurding – qolding uyatga* maqollarida yurmoq "yaqinlashmoq", "hayot kechirmoq", "faoliyat yuritmoq" semalarini ifodalab kelgan.

4) *Er yursa, yo'li ochilar, Xotin yursa, yuzi ochilar* maqolida "yur" fe'li turkiy xalqlarga xos ikki xil madaniy fonda: erkaklarga nisbatan qo'llanilganda ijobiy sema, ayollarga nisbatan ishlatilganda salbiy ma'no (behayo, beibo) kasb etgan. Quyidagi maqolda esa faqat salbiy fon mujassam: *Sayoq yurgan tayoq yer*.

5) *Ko'rmaganning ko'rgani, Yurmaganning yurgani yomon* maqolida shaxsning "tor doiradan tashqariga chiqish" holatini ifoda etgan.

6) *Boyning iti hurag'on, Oti yurag'on bo'lar* maqolidagi yurag'on "harakat imkoniyatining kengligi"ni aks ettirgan. *Boy* leksemasidagi "imkoniyati kenglik" semasi mazkur leksema denotatiga aloqador jonozotlarga ko'chgan.

Yur- asosli leksemalar barqaror birikmalar tarkibida kelib, ko'chma ma'nodagi semantikasi yuzaga keltirishga xizmat qiladi: *Teshaboyvachcha qilviriqning shoxida yursa, Madumar mingboshi bargida yuradi* (M.Ismoilij). Mazkur barqaror birikmadagi yurmoq amalga oshirish mumkin bo'lmagan harakatni ifodalab kelgan. *Qilviriq* – qil asosidan yasalgan o'simlik nomi. *Qil* 1. Ot va ba'zi boshqa hayvonlar dumi yoki yolini har bir tolasi; umuman, jun, soch, mo'y va sh.k.ning tolasi. 2 s.t. esk. Musiqa asboblarining tebranganda ovoz chiqaradigan ipi; tor [8]. *Qil* ishtirok etgan qilich, qilko'priq, qiltanoq, qiltiq, qiltomoq, qilcha, qilchalik, qilqalam leksemalarida, oralaridan qil (ham) o'tmaydi, xamirdan qil sug'urganday, yuragiga (yoki ko'ngliga) qil sig'maydi, qil (ning) ustida o'tirmoq, qildan qiyiq axtarmoq, qilni qirq yormoq frazemalarida "ingichkalik" semasi aks etgan. *Qilviriq* "O'zbek tilining izohli lug'ati"da qayd etilmagan. *Qilviriq* semantikasida aks etgan "ingichkalik" semasi asosidagi "noziklik" tushunchasi barqaror birikmada dastavval, shoxga, keyin esa bargga ko'chirilgan. *Barg* leksemasidagi "noziklik" shox birligiga qaraganda yuqori darajada ifodalangan. *Shoxida yurmoq, bargida yurmoq* murakkab tarkibli frazemaga aylangan bo'lib, "uddaburon" semasini ifodalashga xizmat qiladi. *Sen shoxida yursang, men bargida yuradiganlardanman!* (O.Yoqubov) misolida ham frazemaning "uddaburonlik" semasi aks etganligini kuzatish mumkin.

Yurmoq leksemasi maqollardagi frazemalar tarkibida kelib, turli semantika ifodalashda yadro vazifasini o'tagan. *Kambag'alning ovi yurmas, ovi yursa ham dovi yurmas* maqolida *dovi yurmoq* frazemasini "ishi yurishmaslik", "omadi kelmaslik" semalarini ifodalab kelgan. Maqol tarkibidagi *dov* so'zi arxaiklashgan bo'lib, hozirda mustaqil qo'llanmaydi. Hozirgi o'zbek tilida qo'llanayotgan *dov-darak, dov-daraxt, dov-dastak, dov-janjall* juft so'zlari, *dovdir, dovdiramoq, dovdiratmoq, dovdirlik, dovlamoq* leksemalari tarkibida kelib, turli semantikadagi lug'aviy ma'nolarni yuzaga chiqarishda ishtirok etadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da to'rt xil ma'nodagi *dov* so'zi izohlangan: *dov* I 1 Bo'yi baland, yo'g'on va baquvvat. 2 ko'chma Jur'at, botinish; dadillik. Ko'ngli (yoki yuragi) *dov* bermaslik Botina olmaslik, jur'at qila olmaslik; *dov* II [f.] O'z haq-huquqini tasdiqlash yoki qondirish haqidagi talab, da'vo, tortishuv; *dov* III [f.] o'yinda o'rtadagi pulni ko'paytirish] Qimorda o'rtaga tikilgan pul yoki boshqa qimmatli narsa; *dov* IV folk. Urush, janjal; kurashuv, olishuv [8]. Frazema tarkibidagi so'z *dov* II omonimining ma'nosiga aloqador bo'lib, "talab, da'vo" semalarini ifodalagan. "Talab, da'vo"ning qondirilmaligi ko'chma ma'noda "ishi yurishmaslik" semasini yuzaga chiqargan. *Dovi yurmoq* frazemasini aksariyat o'rinlarda bo'lishsiz shaklda va shu mazmunda ishlatiladi. Ayrim o'rinlarda bo'lishli holati ham uchraydi: *Ovi yurganning dovi yurar* (maqol).

Chapga yurmoq frazemasini, asosan, so'zlashuv nutqiga xos bo'lib, "xiyonat qilmoq", "qing'ir ish qilmoq" ma'nolarini ifodalaydi.

Tilshunos Sh.Rahmatullayev fikricha, frazema kamida ikki leksemadan iborat bo'lib, fe'l frazemalarda tayanch a'zo fe'l-leksemalar bilan, notayanch a'zo(lar) asosan ot-leksemalar bilan, qolaversa, boshqa turkum leksemalar bilan ifodalanadi [5]. Olim fe'l frazemalarni tadqiq etar ekan, sintaktik qurilishiga ko'ra ikkita yirik guruhga ajratadi:

1. Sintaktik qurilishi nopredikativ sintagma (birikma)ga teng frazemalar: *tuproqdan tashqarida yurmoq, ovi yurgan* kabilar. Masalan: *Hammani to'ydirish g'amida yuradi-yu*, o'zi to'yib non yemaydi (Hamid G'ulom) *Avaz bu vaqtgacha Davlatbekov to'g'risida juda yomon fikrda yurganidan* izza bo'ldi (Pirimqul Qodirov). *Brigadir yo'rig'iga yurmasa*, bor-e deb hammasiga qo'l siltab ketib ham qolardi (Z.Qurolboy qizi). *Otang, akalaring yo'lidan yursang, kam bo'lmayсан, bolam!..* (O.Yoqubov).

2. Sintaktik qurilishi predikativ sintagma (gap)ga teng frazemalar: *aql bitmadi, bosh(i) shishdi* [5]. Bu kabi frazemalar tarkibida ega vazifasidagi so'z, ya'ni uning muqim grammatik shakli bosh kelishik shaklidagi leksema mavjudligi sabab gap egasi bilan bog'lanish hosil qilmaydi. Bundan tashqari frazema to'laligicha gap qolipida ham shakllangan bo'lishi mumkin: *Sen shoxida yursang, men bargida yuraman, buni bilib qo'y...* (O.Yoqubov).

Xulosa.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, *yur*- asosli fe'l-leksemalar frazemalar tarkibida kelib, turli usubiy-semantik xususiyatlarni ifoda etadi, nutqda sintaktik qurilishi nopredikativ sintagma (birikma)ga hamda predikativ sintagma (gap)ga teng *yur*-asosli fe'l- frazemalar uchraydi. Masalan, "*yurgiligi qolmadi*"- predikativ sintagma (gap)ga teng frazelogik birlik, chunki "*yurgilik*" leksemasi faqat "*qolmadi*" fe'li bilan birikkandagina yaxlit ko'chma ma'noni ifodalaydi, ya'ni bu so'z nutqda yakka holda qo'llanmaydi (izohli lug'atlarda faqat "*yurgiligi*" leksemasi izohi keltirilgan): *Oqtosh elda yurgiligim qolmadi. Yurgiligim qolmadi* frazemasi mustaqil komponentlarga ajralmaydi. Masalan, *qulog'iga quyymoq* frazemasi struktur jihatdan *quloq+qolmadi* komponentlaridan hosil bo'lgan butunlik. Ammo yuqoridagi frazemani *yurgilik(+im)+qolmadi*

komponentlariga ajratib bo'lmaydi. *Yurgilik* butunligi *ko'rgilik* leksemasi qolipida yasalgan: ko'r+gilik, yur+gilik. Bunda o'zbek tilidagi grammatik manbalarda qayd etilmagan -gilik murakkab affiksi qo'llangan; *ko'rgilik* so'zi mustaqil qo'llanadi, ammo *yurgilik* mustaqil ishlatilmaydi. Har doim frazema tarkibida keladi. Bu esa bir xil qolipdagi so'zshakllarning intralingvistik omillarga ko'ra har xil kategorial mezonlarga xoslanishini ko'rsatadi.

Og'zi bilan yurmoq, tili bilan yurmoq, bosh ko'tarib yurmoq frazemalari ham yurmoq fe'lining turli semalariga asoslanadi. "*Tili bilan yurmoq*", "*oyog'i bilan emas, og'zi bilan yuradigan odamlar ham bor*" kabi jumalalarda kundalik hayoti tinimsiz g'iybat qilish bilan o'tadigan insonlar nazarda tutilgan bo'lib, ular ham mavjud lug'atlarda o'z aksini topmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари: Филол. фан. д-ри. дисс. ... автореф. – Тошкент, 1966.–Б.46;
2. Berdialiyeв A., Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili (leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya).–Toshkent: Turon-iqbol, 2021.–B.160.
3. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик birlikларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Филол. фан. д-ри дисс...автореф. –Тошкент, 1993. –47 б.;
4. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филол. фан. д-ри. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2000. – 48б.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви.–Тошкент: Университет, 1992. – Б 3-5; шу муаллиф. Лексема ва фразема маъносини компонент таҳлилнинг баъзи натижалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. – № 3. – Б.19-20.
6. Степанова М.Д., Хельбиг Г. Части речи и проблемы валентности в современном немецком языке. –М.: Высшая школа, 1978. – С.170-171.
7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви.–Тошкент: Университет, 1992. – Б. 3-5.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –B.123.
9. Степанова М.Д., Хельбиг Г. Указанная литература. – С. 170-171.

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

01.00.00 - ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ

PHYSICS AND MATHEMATICS

Polimer quyosh elementning samaradorligini suyuq polimer qo'shish orqali oshirish.	
L.Nurumbetova, A.Saidqulova, N.Otaqulova.....	4
Yarimo'tkazgichlarda tenzoeffekt hodisasi.	
A.Abdukarimov, A.Suvanov, J.Nematullayev.....	11
Beshinchi tartibli xususiy hosilali tenglama uchun aralash masala.	
M.Babayev.....	14
InP/InAs0.25P0.75/InP geterotuzilmali nanoip ichida joylashgan inas nanonuqtaning chiziqli va nochiziqli optik xossalari.	
A.Davlatov, B.Abdulazizov, D.O'rinov.....	20
Краевая задача для неоднородного уравнения пятого порядка.	
Б.Иргашев, М.Мухсинова.....	27
Ko'pprotonli tizimlar.	
K.Olimov, Sh.Baxodirov.....	31
Kvant o'ra kengligi va tarkibi o'zgarishining "InP/InAs1-xPx/InP" kvant o'rasining chiziqli va nochiziqli optik xususiyatlariga ta'siri.	
A.Davlatov, B.Abdulazizov, A.Abdukarimov.....	34
Uglerodli nanozarrachalarning nanoto'ldiruvchilik xususiyatlari tadqiqi.	
U.Maxmanov, E.Tursunqulov.....	40
Chuqur aralashma satxlari ishtirokida p-CdTe/n-CdS va p-CdTe/n-CdSe plyonkali geterostrukturalarining shakllanishi va tuzilishining xususiyatlari.	
S.Otajonov, R.Ergashev, Q.Botirov, U.Ma'rufova, L.Ergasheva.....	47
Elektronning kremniyli to'rt qatlamli nanostrukturalardagi harakatiga elektr maydonining ta'siri.	
M.Nosirov, S.Matboboyeva, N.Yuldasheva, S.Jonibekova.....	52
Simmetrik va assimetrik kvant o'rada elektron dispersiyasi.	
B.Shahobiddinov, O.To'xtabayev.....	57
Tasodifiy hodisalar uchun matematik modellashtirishda zamonaviy ehtimollar usullari.	
G.Shamsitdinova.....	60
Chiziqli bog'lamli fazolarni o'qitishda amaliy masalalardan foydalanish metodikasi.	
D.Eshqobilova, G.Jamg'irova.....	63
4,2 gev/c impulsli nc va pc to'qnashuvlarida δ^0-izobaralar hosil bo'lishining qiyosiy tahlili.	
K.Olimov, G.Xudoyberdiyev, A.Qurbonov, M.Urolova, B.Abdulazizov.....	67
Termoelektrik energiya o'zgartirgichlarni modellashtirish orqali tadqiq qilish.	
M.Norbutayev.....	70
CZTS yupqa qatlamli quyosh elementlariga bufer qatlamlarning ta'siri.	
T.Razikov, Q.Kuchkarov, B.Ergashev, R.Xurramov, Sh.Bobomuradov.....	79
Kasr tartibli operator qatnashgan parabolik turdagi tenglama uchun bitsadze-samarskiy tipidagi masala haqida.	
M.Jalilov.....	88
Sb₂Se₃ yupqa qatlamli quyosh elementlarini scaps-1d dasturi yordamida modellashtirish.	
T.Razikov, Q.Kuchkarov, B.Ergashev, R.Xurramov, Sh.Bobomuradov.....	95
Наведенная радиоактивность и облучение персонала при терапии тяжелыми ионами: исследование методом моделирования.	
Ш.Хасанов, О.Маматкулов, У.Тухтаев, Д.Хакимов.....	107

KIMYO FANLARI

02.00.00 - ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

CHEMICAL SCIENCES

Application of ion-selective electrodes for the determination of chlorate ions in chemical preparations.	
E.Ismailov, I.Abdurkhmonov, A.Togasharov, E.Khusanov, B.Akhmedov.....	112
Сезонная динамика содержания свободных аминокислот в стеблях хлопчатника.	
С.Нурманов, С.Азимов.....	117
Axe-dezoksipeganin kompleksini molekulyar modellashtirishda ligand atomlaridagi zaryad taqsimotlarining o'rni.	
A.Yeshimbetov, J.Ashurov, B.Elmuradov, B.Ibragimov.....	121

Teksturlangan iplar chiziqiy zichligini aniqlash uslubiyoti.

B.Dautov, B.Abduganiyev..... 126

Fenil-2-fenoksipropionat sintez qilish usulini ishlab chiqish.

M.Ochilov, N.Mamatkulov, A.Abdushukurov..... 131

Development of technology for obtaining (inulin) extracts of topinambur by combination drying.

A.Ismanova, M.Meliboyev, M.Bekmirzayev..... 136

Po'stloq sellulozasini aminlash orqali olingan sorbentning sorbsion xususiyatlari.

N.Omonov, M.Jo'rayev..... 141

Поведения химических элементов в природных и техногенных водах Центрального Кызылкума.

Д.Хуррамова, У.Шарафутдинов, И.Каримов..... 145

BIOLOGIYA FANLARI**03.00.00 - БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ****BIOLOGICAL SCIENCES****Bakterial streptokinaza genini ajratish va klonlash.**

X.Vohidov, A.Xoliqov, B.Alimova, O.Pulatova, A.Maxsumxanov..... 152

Определение числа копий транскрипта методом QPCR с использованием промотора CAMV 35s.

Ш.Шерматов, Д.Усманов, З.Буриев, И.Абдурахмонов..... 159

G'o'zaning turlararo duragay populyatsiyalardan ajratib olingan oilalarda qimmatli-xo'jalik belgilarining tahlili.

F.Gaziyeva, B.Gapparov, M.Qudratova, Q.Xaliqov, F.Kushanov..... 165

G.hirsutum L. va G.barbadense L. g'o'za navlarining gullash - ko'saklash fazasida suv almashinuv xususiyatlari.

A.Danabayev, Sh.Fozilov..... 170

Pskom havzasi – xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan quruqlik mollyuskalarning taksonomik tarkibi va ularning tarqalishi.

Z.Maxamadiyev..... 174

Agrobacterium tumefaciens yordamida pomidor o'simligi (solanum lycopersicum l) transformatsiyasida qo'llaniladigan ozuqa muhitlarini optimallashtirish.

A.Murodov, M.Ayubov, B.Mamajonov, A.Yusupov, N.Obidov, Z.Bashirxonov, Z.Buriev..... 178

Zamonaviy dunyoda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ovqatlanishini tashkil etishning dolzarb masalalari.

G'.Abdullayev, N.Uluxujayeva..... 183

Морфологическая характеристика рыб-производителей белого толстолобика (Hypophthalmichthys molitrix) в прудовых условиях Ташкентской области.

Д.Бозорова, С.Ким, Л.Эгамбердиева, Б.Камиллов..... 189

Qashqadaryo viloyati efir-moyli o'simliklari ro'yxati (Qashqadaryo o'simliklar kadastri (2018) tahlili bo'yicha).

O.Omonov, T.Aromov, O.Dillayev, A.Norxodjayeva, B.Begaliev, O.Ziyodullayeva..... 195

Antioksidant vitaminlar ta'sirida immunitet va oksidlovchi stress biomarkerlarining dinamikasi.

Q.Niyozov..... 202

Ptelea trifoliata l. (rutaceae juss.) to'qima kulturasida asetilxolinesteraza ingibitorlari manbai sifatida.

H.Jurayeva, V.Axmedova, A.Xazratov, F.Mustafina..... 208

Prunella vulgaris l. o'simligining bioekologiyasi, tibbiyotdagi ahamiyati va morfometrik ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili.

I.Muminov..... 212

Azotobacter chroococcum ekzopolisaxaridlari yordamida sho'rlangan tuproqlarda mikroelementlar harakatchanligini oshirish.

J.Nizomov..... 215

Значение растений рода Achillea l. в восстановлении физиологического состояния овец, заражённых кишечными цестодами.

M.Istamkulova, A.Daminov, X.Keldiyarov..... 219

Organik ishlab chiqarish – muammolar va ularning tizimli yechimlari.

N.Xo'jamshukurov, Z.Abdutolibov, D.Kuchkarova, K.Maksumxodjayeva..... 224

TEXNIKA FANLARI**05.00.00 - ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ****TECHNICAL SCIENCES****Piyoz po'stidan tabiiy oziq-ovqat bo'yoqlarini olish uchun ekstraktsiya nisbatlarini aniqlash.**

A.Xabibullayev, G.Xojiahmedova..... 233

TARIX FANLARI**07.00.00 - ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ****HISTORICAL SCIENCES****Is'hoqon Ibrat — millat ma'rifatining mash'ali.**

R.Xasanboyeva..... 237

Sovet davrida Farg'ona vodiysi energetika tizimidagi o'zgarishlar tahlili.

T.Umaraliyev..... 239

FALSAFA FANLARI**09.00.00 - ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ****PHILOSOPHICAL SCIENCES****Huquqiy ong tushunchasining ontologik va gnoseologik tahlili.**

A.Mo'ydinov..... 243

"Tadbirkor" va "biznesmen" atamallari o'xshashliklari hamda farqlarining ijtimoiy-falsafiy jihatlar.

B.Ganiyev, E.Abduxolikova..... 248

Gender tengligining aksiologik mohiyati, qadriyatlar tizimidagi o'rni va ahamiyati.

M.G'aniyeva..... 253

Si texnologiyalari yordamida blogosfera muhitini rivojlantirish tendensiyalari.

M.Sayfutdinova..... 258

Narkomaniyaga qarshi kurash paradigmalarning ijtimoiy-falsafiy tahlili.

O.Sotvoldiyev..... 264

Jamiyatda ayollarning huquqiy sub'yektligi evolyusiyasi: falsafiy-huquqiy tahlil.

B.Talapov..... 269

Аллегорическая и символическая система в поэзии насими в контексте суфизма и хуруфизма.

X.Geydarova..... 273

O'zbekistonda gender madaniyatini shakllantirishda ta'lim tizimining o'rni.

F.Davronova..... 278

Ahloqiy tarbiya yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirishning muhim omili.

X.Saitxodjayev..... 281

O'quvchilar ijtimoiy xotirasini mustahkamlash omillari.

Q.Mahkamov..... 285

Ishsizlikning iqtisodiyotga ta'siri va mehnatga munosabatning ijtimoiy-falsafiy jixatlari.

U.Muxtarov..... 290

Missionerlikning xalqaro va mintaqaviy munosabatlarga ta'siri, unga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy omillari.

T.Karimov..... 294

Usmon Nosir ijodida ma'rifatparvarlik konsepsiyasi.

N.Nuraliyeva..... 299

Inson kapitali va jamiyat taraqqiyoti: investitsiya, ta'lim va innovatsion yondashuvlar.

M.Sodirjonov..... 302

Siyosiy partiyalar genezisi va evolyutsiyasining ijtimoiy-falsafiy mazmuni.

S.Nuraliyev..... 310

Ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etishda o'zbekiston tajribasi.

Sh.Hasanov..... 316

Ijtimoiy xavfsizlikka neyrolingvistik dasturlash texnologiyalarining ta'siri: tahliliy yondashuv va yechimlar.

S.Xidirov..... 322

Islohot va dasturlarni amalga oshirishda strategik modellashtirishning samarador mexanizmlari: yangi O'zbekiston misolida.

A.Mansurov..... 327

Huquqiy savodxonlikni oshirishda huquqiy ongning o'rni.

B.Kenjayeve..... 332

Yangi O'zbekiston yoshlarining ongida mehnatning ontologik va aksiologik mohiyatining ifodalanishi: ijtimoiy-falsafiy tahlil.

U.Artikov..... 339

Zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari va ularning oilaviy munosabatlardagi ijtimoiy-madaniy an'analarning o'zgarishiga ta'siri.

A.Sultonov..... 345

Markaziy Osiyoda ilk uyg'onish davrida (IX-XII asrlar) ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyoti.

M.Parpiyev..... 350

G'arb mutafakkirlari qarashlarida tinchlik, hamjihatlik va bag'rikenglik g'oyalarining ijtimoiy-falsafiy tahlili.	
B.Rajabov.....	354
Inklyuziv jamiyat: muammolar va tajribalar.	
A.Salmonov.....	358
Yangi O'zbekistondagi ijtimoiy-falsafiy g'oyalar tizimining barqarorligi va ijtimoiy adolat tushunchalari.	
I.Axmedov.....	362
Yangi O'zbekistonda shaxs va jamiyat manfaatlarini ta'minlash zarurati.	
S.Do'styorova.....	365
Jamiyatda inklyuzivlikning namoyon bo'lishi: tarixiy va falsafiy diskurs.	
E.Tursunaliyeva.....	369
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida huquqiy ta'lim va tarbiyaning ahamiyati: ijtimoiy-falsafiy tahlil.	
S.Norboyev.....	372
Mehnat huquqi va axloq: inson huquqlarini amalga oshirishda axloqiy masalalar.	
N.Odilov.....	376
Axborotlashgan jamiyatda inson kapitalining ontologik va epistemologik perspektivalari.	
G'.Qo'ziyev.....	380
Nogiron bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishda ijtimoiy madaniy faoliyatning o'rni va ahamiyati.	
M.Toshkanboyeva.....	386
Zamonaviy sharoitda o'zbekistonda ijtimoiy taraqqiyot va gender tenglik.	
K.Sharipova.....	390
Sharq va g'arb qadriyatlarining zamonaviy yoshlar madaniyatiga ta'siri.	
H.Umarov.....	394
Научно-философское наследие Ибн Сины - великого мыслителя раннего возрождения.	
Б.Бобоёрров, П.Бобоёррова.....	399
Ichki ishlar organlari xodimlarining davlat sug'urtasi huquqiga doir tushunchalar.	
J.Kenjayeov.....	407
Ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy ta'minotiga oid huquqiy kafolatlari.	
L.Radjapova.....	411
Sun'iy intellekt tahdidi.	
A.Mirzaxmedov, X.Mirzaxmedov.....	416
Inson ontologiyasi nazariyasining falsafiy-metodologik tahlili.	
L.Qurbonova.....	421

FILOLOGIYA FANLARI
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

O'zbek va ingliz tillarida savdo leksikasining morfologik funksiyalari va qiyosiy lingvistik tahlili.	
S.Bozorova.....	425
Etnografik leksikaning tadqiqi: jahon tilshunosligidagi nazariy va amaliy yondashuvlar.	
M.Jalilova.....	430
Trauma as a catalyst for psychological growth in the child characters of Susan Hill's fiction.	
D.Tokhirova.....	435
O'zbek folklorining to'planishi va tadqiq etilishida xorijiy olimlarning tutgan o'rni.	
Sh.Imomnazarova.....	438
O'zbek xalq ertaklaridagi salbiy obrazlar va ularning lingvopoetik tahlili.	
H.Bozorov.....	440
O'g'il bolalar nutqining leksik-semantik xususiyatlari.	
D.Qozoqboyeva.....	445
Abdulla Oripov she'rlarida qo'llangan ayrim pretsedent nomlarning leksek-semantik tasnifi.	
Sh.Abdurahmonov, N.Topiljonova.....	448
Amerika realizmining rivojlanishi va bu oqimga hissa qo'shgan asosiy vakillar.	
O.Kozakova.....	453
Ingliz va o'zbek tillarida mobil aloqa terminlarining morfologik xususiyatlari.	
E.Arzimurodova.....	456
Tojik xalq maqollarning o'rganilish tarixi.	
S.Kodirova.....	462
Muqimiy lirikasida qo'llangan ayrim fonostilistik vositalar.	
R.Jo'rayeva.....	466
O'zbek va ingliz tillarida harbiy terminlarning kelib chiqishi: etimologik-lingvistik tahlil.	
	470

S.Xidirova.....	
Yozuvchining ijodiy yo'li va adabiy maktabi.	
M.Hamidova.....	473
So'z turkumlarini derivatsion modellash: sistematik yondashuv.	
I.Abdullayev.....	477
Badiiy asarda avtobiografik elementlarni tahlil qilish va aniqlash (Anni Ernoning "Une femme" (Ayol) asari misolida).	
F.Abdullayeva.....	481
Kazio Ishuguro asarlarida o'zlikni anglash poetikasi.	
E.Isomiddinov.....	485
Kontrastiv tilshunoslikning shakllanishi, terminologiyasi va zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni.	
I.Rasulova.....	490
Punktuatsiyalarni modellash va kompyuter lingvistikasining imkoniyatlari.	
D.Jumayeva.....	494
Lingua coaching: integrating language learning and personal development.	
G.Juraeva.....	498
O'zbek tilidagi sifatlarning yasashida arab va fors-tojik tilidan o'tgan so'z shakl va qo'shimchalarning o'rni.	
G.Kuchimova.....	501
"Yur-" asosli frazemalarning semantik xususiyatlari va tezaurusi.	
S.Qahharova.....	505
The learner is the curriculum: personalization and autonomy in the language classroom.	
M.Abdurakhimova.....	509
Tarjimada muqobilsiz leksikaning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini saqlab qolish muammolari.	
X.Qodirjonov.....	512
Raqamli transformatsiya sharoitida tanqidiy tafakkur va sun'iy intellektning o'zaro ta'siri.	
X.Xolmirzayev.....	516
Bugungi o'zbek adabiyotida islomiy motivlar: tendensiya va tamoil.	
J.Yoqubov.....	520
Роль произношения при чтении текста.	
M.Турсынова.....	524
Основные лексико-семантические группы адъективных метафорических эпитетов в русском и узбекском языках.	
A.Собиров.....	528
Til va madaniyat kesishmasida: ingliz, amerika va o'zbek harbiy kiyimlari va unvonlari leksikasining kognitiv-madaniy tadqiqi.	
A.Ismoilov.....	531
O'zbek she'riyatida kuz tasviri orqali lirik qahramon ruhiyatining ifodalanishi.	
Q.Mamiraliyev.....	534
Milliy tafakkurda ayol qismati va ruhiy olamini aks ettirishi.	
K.Egamberdiyeva.....	539
Kichik asarlar matnida graduonimiya hodisasining nutqiy voqelanishi.	
M.Matqurbonova.....	542
Ziyovuddin Mansur she'riyatida vatan va mustaqillik g'oyalari poetik talqini.	
G.Xoshimova.....	545
Ingliz va o'zbek tillarida <i>milk/sut</i> konseptining lingvokognitiv va lingvomadaniy tahlili.	
G.Zaynobiddinova.....	547
Akademik diskursning zamonaviy lingvistik talqini va tadqiqot metodlari.	
M.Obilov.....	550
Musulmon jamiyatida ayol yosh davrlarining badiiy tasviri: Xolid Husayniy va Malala Yusufzoy asarlari asosida.	
D.Ollaberganova.....	553

PEDAGOGIKA FANLARI

13.00.00 - ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

PEDAGOGICAL SCIENCES

Технология повышения эффективности самообразования студентов на основе альтернативного обучения.

Д.Азизова..... 557

Effective methods for teaching english collocations to secondary school students. 561

N.Abbasova, Sh.Adxamova.....	
Oliy ta'lim talabalari o'rtasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish metodikasi.	
I.Raxmonov.....	565
Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish holati: amaliy tadqiqot, natijalar va tavsiyalar.	
D.Gulboyev.....	569
Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari.	
A.Boymirzayev.....	572
Zichlik funksional nazariyasi asosida VESTA, Burai va Quantum ESPRESSO dasturlarining fizikadagi o'rni va qo'llanilishi.	
D.Xajibayev, I.Jaksimuratov, A.Jalekeshov.....	577
Grammar teaching approaches in primary efl (5th and 6th grades): a comparative study of deductive and inductive methods.	
X.Azamatova.....	582
Texnologik jarayonlarni modellashtirishning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari.	
Sh.Shoyimov.....	588
Tibbiy ta'limda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari.	
G.Muxammadova.....	592
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari.	
S.Xabibullayeva.....	596
O'quvchilarda internet savodxonligi madaniyatini tarbiyalash va rivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlarni yaratish.	
M.Dedaxonova.....	600
Alaliya nutq nuqsonining sabablari, belgilari va bartaraf qilish usullari.	
Sh.To'reniyazova.....	603
Klax pedagogikasining zamonaviy ta'limdagi ahamiyati va amaliy qo'llanilishi.	
N.Adilova.....	608
Raqamli axborot muhitida yoshlarga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy tahdidlar va xatlarni tahlil qilish.	
B.Axmedov.....	612
Tizimli yondashuvga asoslangan holda fizika fanini kimyo ta'lim yo'nalishi talabalariga o'qitish metodikasi.	
D.Begmatova, O.Iskandarov, B.Yakubova, O.Suvonova.....	617
Talabalarning xalq hunarmandchiligi bo'yicha ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish holati.	
S.Esanova.....	622
"Cheksiz chuqur potensial o'ra" mavzusini raqamli texnologiyalar yordamida o'qitish metodikasini takomillashtirish.	
E.Muxtarov.....	625
Globallashtirish davrida kommunikativ madaniyat muammolari.	
N.Vakilova.....	632
Yuqori sinf o'quvchilarini jismoniy tayyorgarlik darajalarini rivojlantirishda xorijiy tajribalar taxlili.	
G'.Abdullayev.....	637
Geografiya darslarida gis va raqamli xaritalar orqali fazoviy tafakkurni rivojlantirish.	
D.Davlatova.....	641
Matnni modellashtirishni o'rgatish tamoyillari. O'qitishning umumiy didaktik tamoyillarini amalga oshirish.	
M.Hamrayeva.....	645
Forsight modellashtirish va qaror qabul qilish kompetensiyalarining integratsiyasi.	
S.Hasanova.....	649
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik asoslari.	
Z.Latibjonova.....	652
O'quv mashg'ulot guruxi futbolchilarini ampulasi bo'yicha jismoniy rivojlanganligini tuzulishi.	
K.Shokirjonov.....	655
Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari.	
J.Karimov.....	660
"Molekulyar fizika" bo'limini fizika va kimyo fanlarining integratsiyalashgan holda o'qitish zarurati.	
M.Ergasheva, E.Vazirova.....	663
Tarix fanini o'qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha xorijiy tajribalar.	
J.Muhammadiyev.....	666
Tarbiyaviy faoliyatning kompetensiya shakllanishidagi o'rni: axloqiy, madaniy va ijtimoiy tarbiya jarayonida umumkasbiy ko'nikmalarning integratsiyasi.	
	670

S.Sanayeva.....	
Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirish.	
M.Rejabboyeva.....	675
Malakali bokschilarning jangovar faoliyatini modeli tavsiflari.	
V.Anashov.....	679
O'qituvchilarning ekologik savodxonligini oshirishda o'zbek xalq pedagogikasining o'rni.	
I.Xurramov.....	682
Nutqiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni sensor rivojlantirishning samarali usullari.	
M.Yusupova.....	686
О первом конкурсе и альманахе «Заветная лира».	
H.Narзуллаева.....	690
Mustaqil ta'lim kontekstida talabalarning ssenariyavislik ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi.	
N.Mamatqosimova.....	695
Развитие речи детей с помощью картинок при обучении русскому языку.	
O.Xaydarova.....	702
Организация проектных работ на уроках русского языка как иностранного в условиях современной школы.	
M.Солиева.....	705
Texnologik ta'lim jarayonida bilish faoliyatining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari.	
D.Xolmirzayeva.....	708
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlashning metodik vazifalari.	
F.Hamdamova.....	712
"Pedagogik konfliktologiya" fani asosida bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish mazmuni.	
M.Kamoldinov.....	715
Malakali voleybolchilarda sakrab to'pni o'yinga kiritish texnikasini ijro etishda yuzaga keladigan jarohatlarning oldini olishning kinematik asoslari.	
A.Turg'unov.....	718
Fizika fanidan masalalar yechishda sun'iy intellektlardan foydalanish metodikasi.	
A.Soyibnazarov.....	720
Muhandislik yo'nalishi talabalariga kimyo fanini zamonaviy o'qitish usul va vositalari.	
Z.Xolmatova, S.Otamirzayev.....	725

TIBBIYOT FANLARI
14.00.00 - МЕДИЦИНСКИЕ НАУКИ
MEDICAL SCIENCES

Epidemiological spread of hepatitis c (hcv) in the namangan region.	
Sh.Rustamova.....	730
Алкалоиды как модуляторы сократительной активности гладкой мускулатуры: механизмы действия и перспективы применения в кардиоваскулярной терапии.	
M.Бакиева, С.Гусакова.....	735